

12-1-2019

## NATURAL AND PERSONAL-HUMAN FACTORS OF ENRICHMENT UZBEKISTAN'S NATIONAL WEALTH

A. Mamanazarov  
*Tashkent Financial Institute*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

---

### Recommended Citation

Mamanazarov, A. (2019) "NATURAL AND PERSONAL-HUMAN FACTORS OF ENRICHMENT UZBEKISTAN'S NATIONAL WEALTH," *International Finance and Accounting*: Vol. 2019 : Iss. 6 , Article 9.  
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss6/9>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

## NATURAL AND PERSONAL-HUMAN FACTORS OF ENRICHMENT UZBEKISTAN'S NATIONAL WEALTH

In this article are described the ways of effective use of the components of national wealth to accelerate the socio-economic development of the country. And also, have been developed scientific and practical recommendations on the effective use of the national wealth of the Republic of Uzbekistan, priority directions for its increase, the role of natural and personal factors in achieving these goals.

**Key words:** national wealth (NW), natural factors, labor factors, labor resources.

National wealth is material, intangible, intellectual and natural wealth created by ancestors and accumulated by generations during the development of human society.

Since part of the national wealth is the result of human labor, this factor has always been in the spotlight. That's why President Shavkat Mirziyoyev particularly noted that "... we need to increase attention to human capital and make every effort to do so."

Another part of the national wealth consists of natural resources. Therefore, national wealth includes not only material and intangible benefits, artistic works, intellectual potential, but also natural resources and natural and climatic conditions of reproduction. In a narrow sense, national wealth consists of all human resources created and reproduced by human labor. Therefore, this study analyzes theoretical views on natural and human factors, which are one of the main factors affecting the national wealth of the country.

Natural factors that affect the amount of national wealth created in the country are factors that arise without any connection with humanity. For example, the geographical location of the country, climatic conditions, underground and surface resources, state borders and so on. These are factors that directly affect the amount of national wealth, and a negative change in any of them can lead to a decrease in national wealth.

After careful analysis of a number of scientific studies on the enrichment of the country, we decided that there are several socio-economic factors that can affect its growth, one of the most important of them is the labor force.

The fact that the creation of conditions for the full realization of employment and business activities in the country, improving the quality of the workforce the expansion of vocational training, retraining and advanced training of persons in employment are defined as the most important directions of strategy of social-economic development of the country for the years 2017-2021, demonstrates how effective use of labor resources in the country is an important factor in the creation of national wealth.

The most important factors for the effective growth of the volume (IIM) in the country are the volume of our main wealth-the labor force and its employment in the economy. This is due to the fact that the same economic actors are involved in the creation of new values and are considered as factors of national wealth. In recent years, along with the growth of the population in the country and in its territories, the level of labor force and employment in its structure are growing year by year.

Since labor is heavily influenced by the growth of national wealth, the use of resources will be most efficient. The effective use of labor resources is influenced by many factors that change the state and structure of the labor market, the supply and demand of labor, as well as the quantity and quality of labor.

Demographic factors have a significant impact on the effective use of labor resources. At the same time, demographic factors cause natural changes in the structure of the labor force and employment. The population, including the labor force, has a negative impact on employment. If this figure is high, it will lead to a qualitative and quantitative reduction of the country's labor force. At the same time, the increase in the number of diseases, especially occupational diseases and injuries, can lead to job loss and elimination from the ranks of the labor force.

Proceeding from the above, gender factors play a special role in demographic factors that influence the effective use and mobilization of labor resources. The involvement of women in the economy and in the composition of socially active citizens in Uzbekistan is characteristic.

## **A.Mamanazarov – TMI mustaqil izlanuvchisi**

### **O‘zbekiston milliy boyligini oshirishning tabiiy va shaxsiy-insoniy omillari**

Ushbu maqolada milliy boylik, uning tarkibiy qismlari va ulardan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi milliy boyligi, uni ko‘paytirishning ustuvor yo‘nalishlari, shu maqsadga erishishda tabiiy va shaxsiy-insoniy omillarning o‘rni hamda ulardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so‘zlar:** milliy boylik (MB), tabiiy omillari, ishchi kuchi omillari, ishchi kuchi resurslari.

### **Обогащения национального богатство природного и личного фактора Узбекистана**

В данной статье показаны пути эффективного использования составных частей национального богатство для ускорения социально-экономического развития страны. А также, разработаны научные предложения и практические рекомендации по эффективному использованию национального богатства Республики Узбекистан, приоритетные направления по её увеличению, роль природных и личностных факторов в достижении этих целей.

**Ключевые слова:** национальное богатство (НБ), природные факторы, факторы рабочей силы, трудовые ресурсы.

#### **Kirish.**

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg‘arilgan moddiy, nomoddiy, intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikning bir qismi inson mehnatining natijasi hisoblanganligi sababli ushbu omilga har doim alohida e‘tibor qaratilib kelingan. Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev - “...inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart” – deb, alohida ta‘kidlab o‘tganlar. [1]

Milliy boylikning boshqa qismi esa tabiat boyliklaridan iborat bo‘ladi. Shunday ekan milliy boylik keng ma‘noda o‘z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne‘matlar, yaratilgan san‘at asarlari, intellektual salohiyatni, balk, barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Tor ma‘noda milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo‘ladi. [3] Shuning uchun ham ushbu tadqiqot ishida mamlakat milliy boyligini oshirishga ta‘sir qiluvchi eng asosiy omillardan bo‘lgan tabiiy va ishchi kuchi omillar to‘g‘risida ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi bo'lib mamlakat milliy boyligini oshirishda tabiiy va ishchi kuchi omillaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- mamlakat milliy boyligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish;
- milliy boyluk hajmiga ta'sir qiluvchi tabiiy omillarni aniqlash va bu borada O'zbekiston salohiyatini tahlil qilish;
- O'zbekistonning ishchi kuchi resurslari salohiyatini tahlil qilish va mamlakat milliy boyligini oshirishda ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mamlakat milliy boyligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari xorijiy mamlakatlarning iqtisodchi olimlari, J.Keyns, R.Stoun, J.Marshall, J.Xiks, V.Leontevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan B.I.Bashkatova, A.L.Vaynshteyn, V.K.Zaysev, S.M.Zagladina, Yu.N.Ivanov, G.S.Kulagina, M.G.Nazarov, B.T.Ryabushkin, V.N.Salin, A.V.Sidenko, M.R.Eydelmanlar o'z ilmiy asarlari bilan milliy boylukning ayrim ko'rsatkichlarini hisoblash metodologiyasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar.

Mamlakatimizda milliy boylukning tarkibiy qismlarini tadqiq qilishda T.Jurayev, Sh.Shodmonov, A.Vahabov, N.Soatov, A.Ishmuxamedovlarning ilmiy ishlari alohida e'tiborga sazovordir.

Hozirgi kungacha amalga oshirilgan ilmiy ishlarimiz tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy boylukka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish bo'yicha yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar asosan, muammoning statistik tomonlari, unda mavjud bo'lgan turli xildagi hisoblar tizimi va hisob-kitoblarni yuritish tartibini tadqiq etishga bag'ishlangan. Biroq, ularda milliy boylukning shakllanish mexanizmlari, uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar hamda ularni hisob-kitob qilishning nazariy tomonlari tadqiq etilmagan.

### **Tahlil va natijalar**

Mamlakatda yaratilayotgan milliy boyluk hajmiga ta'sir qiluvchi tabiiy omillar insonga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga keladigan omillardir. Masalan, mamlakatning geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari, er osti va er usti boyluklari, davlat chegaralari va hokazolar. Ular milliy boyluk hajmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan omillar bo'lib, hohlagan birining salbiy tomonga o'zgarishi milliy boyluk hajmi pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Masalan, tuproq unumdorligi, er osti boyluklarining yuza yoki chuqur joylashuvi, ob-havo haroratining keskin o'zgarib ketishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda xosildorlikka ta'sir qilib, mamlakat milliy boyligini sezilarli darajada ko'paytirib yoki pasaytirib yuboradi. [5]

O'zbekiston tabiiy-geografik joylashuvi, tabiati, iqlim sharoitlari, er osti va er usti boyluklari bo'yicha juda katta imkoniyat va salohiyatga ega bo'lgan mamlakatdir. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda juda ko'p turdagi mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hamda ularning hajmini ko'paytirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. [8]

O'zbekiston hududida tahminan yuzdan ortiq mineral xom ashyoni o'z ichiga olgan, binobarin bulardan oltmish turi xalq xo'jaligida allaqachon foydalanilayotgan

ko'pgina foydali qazilmalar kompleksi aniqlangan. O'zbekiston oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzi, fosforitlar, kaolin kabi foydali qazilmalar zahirasi bo'yicha nafaqat MDH davlatlari o'rtasida, balki, butun dunyoda etakchi o'rin egallashi tasdiqlangan. Jumladan, oltin zahirasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi, uni qazib olish bo'yicha ettinchi, mis zahirasi bo'yicha o'ninchi-o'n birinchi o'rinlarni, uran zahirasi bo'yicha ettinchi-sakkizinchi, qazib olishda o'n birinchi-o'n ikkinchi o'rinlarni egallashi qayd etilgan. [7]

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishini energiyasiz, aniqrog'i, neft-gaz iste'molisiz tasavvur qilish mushkul. Mamlakatimizda neft-gaz sanoati iqtisodiyotning etakchi tarmoqlaridandir. O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida tabiiy gaz qazib olish bo'yicha etakchi o'rinlardan birida turadi. Keyingi yigirma yilda O'zbekiston neft va gaz sanoatida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz gaz, polietilen va qayta ishlangan neft mahsulotlarining yirik eksportchisiga aylandi.

Hozirgi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan iqtisodiyotni erkinlashtirish, uning barcha sohalarini, jumladan, neft-gaz tarmog'ini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan qulay investitsion muhit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sohada yangi inshootlarni barpo etish, mavjudlarini zamon talablari asosida rekonstruksiya hamda modernizatsiya qilish ishlari jadal davom etmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ichki bozorda mahalliy mahsulotlar ulushini ko'paytirish, mahalliyashtirishni kengaytirish, korxonalararo kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit, imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi zavodlarda neft qayta ishlanmoqda, avtobenzin, dizel yoqilg'isi, mazut, neft moylari, bitum, aviakerosin ishlab chiqarilmoqda. Gazni qayta ishlovchi zavodlar esa suyultirilgan gaz va polietilen ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida 19,9 million metr kubga teng tabiiy gaz, 126,8 ming tonna neft, 717,5 ming tonna gaz kondensati va 69,1 ming tonna propan-butan fraksiyasi ishlab chiqarildi. [18]

Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulay sarmoyaviy muhit, keng imkoniyat va imtiyozlar chet ellik ishbilarmonlarning hamkorlikka qiziqishini tobora oshirmoqda. O'zbekiston ushbu sohada dunyoning etakchi mamlakatlari, jumladan, Xitoy, Avstriya, AQSH, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniya, Vetnam, Germaniya, Daniya, Janubiy Koreya, Italiya, Polsha, Rossiya, Ruminiya, Ukraina, Fransiya kabilar bilan ushbu sohada keng qamrovli hamkorlik aloqalarini tiklab olgan. [19]

Bundan tashqari, mamlakat milliy boyligining oshishida muqobil energiya manbalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. [11] Respublikamizda ushbu sohada ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmogda. O'zbekistonda bir yilda 320 quyoshli kun bo'ladi. Bir yillik quyosh energiyasi 51 milliard tonna neftga teng, shamol energiyasining salohiyati esa, yiliga 360 million tonna neftga teng. Bunday sof energiyaga ega bo'lish uchun 11 million gektardan ortiq er maydonidan foydalanish mumkin bo'ladi. Quyosh va shamol energiyasi joriy etilishi evaziga O'zbekiston iqtisodiyoti 30 foizga o'sadi. Sof energiya O'zbekistonda ustuvor maqsadga aylanadi.

Natijada yonilgʻidan foydalanish 50 foizga kamayadi hamda havoning ifloslanish darajasi 80 foizgacha kamaytiriladi. Bundan tashqari, Oʻzbekistonda tabiiy meva va sabzavotlarning 350 dan ortiq turi etishtiriladi. 2018 yilda 1,2 mln. tonnadan ortiq meva va sabzavotlar eksport qilingan. 2030 yilga borib, bu boradagi koʻrsatkich 6,8 mln. tonnani tashkil qiladi. [18] Bularning barchasi mamlakatimizda milliy boylik hajmini sezilarli darajada koʻpaytirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va xalq farovonligini oshirishga juda katta yordam beradi.

Mamlakat milliy boyligini oshirishga bagʻishlangan qator ilmiy ishlarni chuqur tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, uning koʻpayishiga taʼsir qiladigan bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjud boʻlib, ulardan eng muhimlaridan biri bu – ishchi kuchi resurslaridir.

Mamlakatimizda “mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini toʻliq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muxtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish” [2] 2017-2021 yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining muhim yoʻnalishi sifatida belgilab olinganligining oʻzi ham yurtimizda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishning milliy boylikni yaratish jarayonida naqadar muhim ahamiyatga molik boʻlgan omil ekanligidan dalolat beradi.

Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni boʻlib mehnatga boʻlgan qobiliyati hisoblanadi. Odatda mehnat qilish qobiliyatiga ega ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha boʻlgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan ayollar kiritiladi. [19] Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa cohalarda band boʻlgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, mamlakatimizda YAIM hajmining oshishida eng asosiy katta boyligimiz boʻlgan ishchi kuchi resurslari hajmi va ularning iqtisodiyotda band boʻlishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiyotning aynan oʻsha subʼektlari haqiqiy yangi qiymat yaratishda ishtirok qiladi va milliy boylikni oshirish omillaridan sanaladi. Oxirgi yillarda respublika va uning hududlarida aholi soni oshishi bilan birga uning tarkibidagi ishchi kuchi resurslari va ularning bandlik darajasi ham yildan-yilga oshib bormoqda. (1-jadval)

1-jadval

**Ishchi kuchi resurslari va ular bandligi (mln. kishi) [15]**

	2000			2005			2010			2018		
	Ishchi kuchi resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar	Ishchi kuchi resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar	Ishchi kuchi resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar	Ishchi kuchi resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar
<b>Oʻzbekiston Respublikasi</b>	<b>12,5</b>	<b>9,02</b>	<b>8,9</b>	<b>14,4</b>	<b>10,2</b>	<b>10,2</b>	<b>16,7</b>	<b>12,3</b>	<b>11,6</b>	<b>18,5</b>	<b>14,64</b>	<b>13,3</b>
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	0,76	0,50	0,49	0,85	0,54	0,53	0,96	0,63	0,58	1,04	0,67	0,34
<i>Viloyatlar</i>												
Andijon	1,14	0,83	0,82	1,34	0,96	0,95	1,56	1,18	1,11	1,71	1,37	1,29

Buxoro	0,75	0,59	0,58	0,86	0,67	0,69	0,99	0,81	0,77	1,06	0,87	0,83
Jizzax	0,47	0,31	0,29	0,55	0,33	0,32	0,65	0,41	0,38	0,75	0,48	0,45
Qashqadaryo	1,02	0,73	0,72	1,32	0,83	0,82	1,49	1,03	0,98	1,76	1,25	1,18
Navoiy	0,41	0,32	0,31	0,46	0,38	0,37	0,53	0,43	0,41	0,54	0,45	0,42
Namangan	0,96	0,62	0,61	1,13	0,69	0,68	1,36	0,87	0,82	1,53	1,06	1,01
Samarqand	1,31	0,93	0,92	1,53	1,05	1,04	1,82	1,31	1,23	2,06	1,58	1,49
Surxondaryo	0,81	0,58	0,57	0,99	0,65	0,64	1,18	0,83	0,79	1,41	1,02	0,97
Sirdaryo	0,32	0,26	0,25	0,38	0,28	0,28	0,42	0,33	0,32	0,48	0,37	0,36
Toshkent	1,23	0,90	0,89	1,41	1,02	1,01	1,55	1,21	1,19	1,62	1,34	1,29
Farg'ona	1,33	1,03	1,02	1,56	1,18	1,17	1,82	1,42	1,34	2,02	1,6	1,5
Xorazm	0,67	0,47	0,46	0,79	0,53	0,52	0,91	0,64	0,61	0,99	0,75	0,72
Toshkent sh.	1,32	1,02	1,01	1,38	1,13	1,12	1,52	1,19	1,15	1,54	1,21	1,17

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz va uning barcha hududlarida ishchi kuchi resurslari yildan-yilga oshib borgan. Masalan, 2000 yilda ishchi kuchi resurslari 12,5 mln., iqtisodiy faol aholi 9,02 mln., bandlar esa, 8,9 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2018 yilga kelib mos ravishda 6 mln., 5 mln., 4,4 mln. kishiga ortgan.

Mamlakat milliy boyligini oshirishda nafaqat ishchi kuchi resurslari miqdori, balki, ularning tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda respublikamiz aholisi va ishchi kuchi resurslari tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu asosan mehnatga layoqatli yoshdagilarning umumiy aholi sonidagi ulushining ortishi bilan bog'liq. (2-jadval)

2-jadval

**Ishchi kuchi resurslari tarkibi (yil boshiga; mln. kishi) [16]**

	2000			2005			2010			2018		
	soni	Doimiy aholigi nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)	soni	Doimiy aholigi nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)	soni	Doimiy aholigi nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)	soni	Doimiy aholigi nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)
<b>Ishchi kuchi resurslari, jami:</b>	<b>12,5</b>	<b>50,6</b>	<b>-</b>	<b>14,4</b>	<b>55,2</b>	<b>-</b>	<b>16,7</b>	<b>58,6</b>	<b>-</b>	<b>18,8</b>	<b>57,1</b>	<b>-</b>
<i>Shu jumladan</i>												
Mehnatga yaroqli yoshdagi aholi	12,2	49,7	98,2	14,3	54,5	98,7	16,5	57,9	98,9	18,7	56,7	99,4
Iqtisodiyotda band bo'lgan o'smirlar va katta yoshdagi aholi	0,22	0,9	1,8	0,19	0,7	1,3	0,19	0,7	1,1	0,1	0,4	0,6

Yosh-jins tarkib bo'yicha guruhlar ulushida mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining salmog'i yuqoridir. Jumladan, 2000 yilda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi doimiy aholiga nisbatan 49,7 foizni, ishchi kuchi resurslariga nisbatan 98,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2005 yilda mos ravishda 54,5 foiz va 98,7 foizni, 2018 yilga kelib esa, 57,1 foiz va 99,4 foizni tashkil qilgan. Ushbu holat mamlakatdagi demografik vaziyatning nisbatan barqarorlashuvi, ishchi kuchini takror hosil qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish tizimining samarali yo'lga qo'yilishi va yangidan-yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasidir.

Ishchi kuchi resurslari o'ziga iqtisodiyotda mehnat bilan band bo'lgan kishilarni ham, band bo'lmasada, mehnat qilishlari mumkin bo'lgan kishilarni ham qamrab oladi. Boshqacha aytganda, ishchi kuchi resurslari faol (real) va potensial xodimlardir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oxirgi yillarda ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi o'rtasidagi nisbatda uncha katta bo'lmagan o'zgarishlar seziladi. (3-jadval)

### 3-jadval

#### O'zbekistonda ishchi kuchi resurslari tarkibida faol va potensial qismlarining ulushi (ming kishi) [17]

	2010	2015	2016	2018*
<b>Jami ishchi kuchi resurslari</b>	<b>16726,0</b>	<b>17814,1</b>	<b>18492,7</b>	<b>19440,8</b>
<i>Shahar</i>	<i>9134,1</i>	<i>9599,5</i>	<i>10208,0</i>	<i>10206,7</i>
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>54,6</i>	<i>53,9</i>	<i>55,2</i>	<i>52,5</i>
<b>Qishloq</b>	<b>7591,9</b>	<b>8214,6</b>	<b>8284,7</b>	<b>9234,1</b>
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>45,4</i>	<i>46,1</i>	<i>44,8</i>	<i>47,5</i>
<b>Ishchi kuchining faol qismi</b>	<b>12286,6</b>	<b>13163,0</b>	<b>15382,6</b>	<b>15941,6</b>
<i>Shahar</i>	<i>6840,8</i>	<i>7098,7</i>	<i>8414,3</i>	<i>8927,3</i>
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>55,7</i>	<i>53,9</i>	<i>54,7</i>	<i>55,8</i>
<b>Qishloq</b>	<b>5445,8</b>	<b>6064,3</b>	<b>6968,3</b>	<b>7014,3</b>
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>44,3</i>	<i>46,1</i>	<i>45,3</i>	<i>44,2</i>
<b>Ishchi kuchining potensial qismi</b>	<b>4439,4</b>	<b>4651,1</b>	<b>3110,1</b>	<b>3499,2</b>
<i>Shahar</i>	<i>2293,3</i>	<i>2500,8</i>	<i>1713,7</i>	<i>1889,6</i>
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>51,7</i>	<i>53,8</i>	<i>55,1</i>	<i>54,2</i>
<b>Qishloq</b>	<b>2146,1</b>	<b>2150,3</b>	<b>1397,0</b>	<b>1609,6</b>
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>48,3</i>	<i>46,2</i>	<i>44,9</i>	<i>45,8</i>

\*2018 yilning 9 oylik ma'lumotlari

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi o'rtasidagi nisbat oxirgi yillarda juda sezilarsiz darajada bo'lgan. Buning asosiy sababi tahlil qilinayotgan har bir davrdagi ishchi kuchi resurslari tarkibidagi faol ishchilar keyingi yillarda pensiyaga chiqib, ular o'rniga yangi ishchilar (olingi davrlardagi potensial ishchi kuchlari) amaliyotga kirib kelayotganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, jadval ma'lumotlaridan ishchi kuchi

resurslarining har ikkala qismida ham shaharlarda band bo'lganlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

Mamlakat milliy boyligining oshishiga ishchi kuchi resurslari juda katta ta'sir qilar ekan, demak, o'sha resurslardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ko'plab omillar ta'sir qilib, uning natijasida ishchi kuchi bozori holati va tarkibi, ishchi kuchi taklifi, unga bo'lgan talab miqdor va sifat jihatdan o'zgarib turadi. SHu sababli, ishchi kuchi resurslari mamlakat iqtisodiyotiga va uning tarmoqlariga safarbar qilinishi holatini tahlil qilishda omilli yondashuv talab etiladi. Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda ularni geografik va tabiiy-iqlimiy, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar kabi guruhlarga bo'lib o'rganamiz.

Ishchi kuchi bandligini ta'minlashga geografik va tabiiy omillar sezilarli darajada ta'sir qiladi. Chunki, respublikamiz mintaqalari turli tabiiy va geografik xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat hududiy mehnat bozorlarining tabiiy sharoitga yuqori ta'sirchanligini anglatadi. Masalan, Orolbo'yi mintaqasidagi ishsizlikning yuqori darajasi ekologik vaziyat bilan asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi tarmog'ining yuqori ulushi respublikada ish bilan bandlikning mavsum va iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligini keltirib chiqaradi. Noqulay kelgan ob-havo sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatib, hosilning keskin kamayishiga sabab bo'ladi. Ushbu holat esa, sanoat, jumladan, qayta ishlash, oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari korxonalarining to'la quvvatda ishlamasligi, ishchilarning bo'sh qolishi va qisqartirilishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu omillar norasmiy sektorda ish bilan bandlar sonining o'sishi va ishsizlikning ko'payishiga ham sababchi bo'ladi. Respublikamizning qishloq joylarida mavjud yuqori darajadagi mavsumiy ishsizlik holati ham aynan mavsum va ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog'liq. SHu bois, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlar mavsumdan tashqari vaqtda ishsiz qolmoqda yoki nomuayyan, vaqtinchalik va bir martalik ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lmoqda.

Hududlarda ishchi kuchi bandligi mintaqada mavjud tabiiy resurslariga ham bog'liqdir. Tabiiy resurslar hududiy iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi. Masalan, tabiiy xom ashyo resurslariga boy bo'lgan Navoiy, Toshkent, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu mintaqalar ishchi kuchining salmoqli qismi ushbu tarmoqlarda banddir.

Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga demografik omillar ta'siri kattadir. Bunda, demografik omillar ishchi kuchining tabiiy harakati va ish bilan bandlik tarkibidagi tabiiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aholi, jumladan, ishchi kuchining o'lim ko'rsatkichi ish bilan bandlikka sezilarsiz bo'lsa-da ta'sir qiladi. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori darajada ro'y bersa, u holda mamlakat ishchi kuchi tarkibining sifat va miqdor jihatdan qisqarishiga olib keladi. SHu bilan birga kasalliklarning ko'payishi, ayniqsa, kasb kasalligi va jarohatlari natijasida ham ish bilan band fuqarolar o'z ish joylarini yo'qotib qo'yishlari va ishchi kuchi safidan chiqib ketishlari mumkin.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, gender omili ishchi kuchi resurslari samarali foydalanish va ularni safarbar etishga ta’sir qiluvchi demografik omillar ichida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda ayollarning iqtisodiyotga jalb qilinishi va jamiyatning faol aholisi tarkibiga qo‘shilishi o‘ziga xos xususiyatga egadir.

### **Xulosa va takliflar**

1. Milliy boylik keng ma’noda o‘z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne’matlar, yaratilgan san’at asarlari, intellektual salohiyatni, balki barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Tor ma’noda milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo‘ladi.

2. Tabiiy omillar milliy boylik hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladigan omillar bo‘lib, hohlagan birining salbiy tomonga o‘zgarishi milliy boylik hajmi pasayib ketishiga sabab bo‘ladi.

3. Mamlakatimiz milliy boyligini oshirishda eng asosiy omillardan biri ishchi kuchi resurslari hajmi, tarkibi va sifati juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mamlakatda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2018 yil 29 dekabr.

2. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.

3. Крыловская Е. М. Ретроспективный анализ национального богатства как социально-экономического явления хозяйственной жизни // Социально-экономические явления и процессы. 2014. № 1. С.33-39.

4. Нестеров Л.И. Новые веяния в статистике национального богатства России // Вопр. статистики. 2018. № 10. С. 15-21.

5. Нуреев П.М. Экономика развития модели становления рыночной экономики. М.: Инфра-М, 2001. стр. 196.

6. Остапенко П.И. Положительные девиации как элемент развития современного российского общества // Научный журнал КубГАУ. 2013. № 85(01). [Электронный ресурс] URL: <http://ej.kubagro.ru/2013/01/pdf/23.pdf> .

7. Перспективный план Статкомитета СНГ по разработке модельных статистических классификаторов, гармонизированных с международными аналогами на 2014–2020 годы [Электронный ресурс]. -Режим доступа: <http://cisstat.com>rus/>.

8. Пешина Э.В. Национальная инновационная система: эволюция, измерение, регулирование [Текст] // Э.В. Пешина, П.А. Авдеев; М-во образования и науки Российской Федерации, Уральский гос. экономический

ун-т. Екатеринбург: Уральский гос. экономический ун-т, 2014. 353 с.

9. Сильвестров С.Н. Национальное богатство: Оценка и упр. экон. развитием // Гос. НИИ систем. анализа Счет. палаты Рос. Федерации. М.: Экон. науки, 2011. 99 с.

10. Where is the Wealth of nations? Measuring capital for the 21st Century [Electronic resource]. - Washington: World Bank, 2006. -URL: <http://siteresources.worldbank.org/INTEEI/214578-1110886258964/20748034/All.pdf>.

11. Andersen, A.D. Innovation systems and natural resources – the case of sugarcane in Brazil. [Electronic resource] // Aalborg: Aalborg University, 2011. - URL: [http://orbit.dtu.dk/en/publications/innovation-systems-and-natural-resources--the-case-of-sugarcane-in-brazil\(ba2a6802-29c0-4bb8-8853-e8d406](http://orbit.dtu.dk/en/publications/innovation-systems-and-natural-resources--the-case-of-sugarcane-in-brazil(ba2a6802-29c0-4bb8-8853-e8d406).

12. Auty, R.M. Sustaining Development in Mineral Economies: The Resource Curse Thesis. [Electronic resource]. -London: Routledge, 2016.

13. Sachs, J.D., Warner, A.M. Natural resource abundance and economic growth // NBER Working Paper 539, 2015.

14. Lundvall, B.-A. National Innovation Systems - Analytical Concept and Development Tool. [Electronic resource] // Industry and Innovation. 14:1. 2017. - P.14. -URL: <http://infojustice.org/download/gcongress/dii/lundvall%20article.pdf>.

15. [http://web.stat.uz/open\\_data/uz/14.6%20Economically%20active%20population\\_uzb.pdf](http://web.stat.uz/open_data/uz/14.6%20Economically%20active%20population_uzb.pdf).

16. [http://web.stat.uz/open\\_data/uz/14.1%20Structure%20of%20labor%20resources\\_uzb.pdf](http://web.stat.uz/open_data/uz/14.1%20Structure%20of%20labor%20resources_uzb.pdf)

17. <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-demografik-korsatkichlari-tahlili>

18. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

19. [www.biznes-daily.uz](http://www.biznes-daily.uz)